https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble

Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ShDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti

Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Toshtemirov Abduvalixon Abdivohid o'g'li

E-mail: abduvalixontoshtemirov@35gmail.com

ARAB XALIFALIGIDA IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOT

Annotatsiya. Ushbu maqola Arab xalifaligining VIII-XII asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotini tahlil qiladi. Maqolada xalifalikning iqtisodiy asoslari – qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, savdo va soliq tizimi batafsil ko'rib chiqiladi. Shuningdek, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, tabaqalanish, oilaviy hayot kabi muhim masalalar manba va adabiyotlarga tayangan holda tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Xaraj, zakot, jizya, ushr, iqto, vaqf, Arab feodalizmi.

Аннотация. В этой статье анализируется социально-экономическая жизнь арабского Халифата в VIII-XII веках. В статье подробно рассматриваются экономические основы халифата – сельское хозяйство, ремесла, торговля и налоговая система. Также анализируются такие важные вопросы, как социальная структура общества, стратификация, семейная жизнь с опорой на источники и литературу.

Ключевые слова: харадж, закят, джизья, ушр, вакф, Вакф, арабский феодализм.

Annotation. This article analyzes the socio-economic life of the Arab Caliphate from the 8th to the 12th centuries. The article will consider in detail the economic foundations of the caliphate – agriculture, crafts, trade and the tax system. Also, important issues such as the social structure of society, stratification, family life are analyzed with reference to sources and literature.

Keywords: Kharaj, Zakat, jizya, ushr, iqto, waqf, Arab feudalism.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Kirish. Arab xalifaligining vujudga kelishida VII asrda vujudga kelgan Islom dining o’rni va roli beqiyosdir. Islom yakkaxudolik dini bo’lib, unga Payg’ambar Muhammad (s.a.v) tomonidan Arabiston yarim orolida asos solingan.

Arab xalifaligi – bu tarixiy davr bo'lib, o'zida Islom dinining tarqalishi, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tuzilmalarning shakllanishi, shuningdek, ilm-fan va madaniyatning rivojlanishini o'z ichiga olgan muhim bir bosqichni anglatadi. Islomiy boshqaruv va uning ijtimoiy-iqtisodiy tamoyillari xalifalik davrida juda katta ta'sir ko'rsatdi. Diniy qadriyatlar, adolat va tenglik prinsiplari jamiyatning turli qatlamlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni belgilab berdi va iqtisodiy tizimning shakllanishiga katta ta'sir o'tkazdi. Arab xalifaligida mehnat, mulk, xayriya, zakot kabi qadriyatlar ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri bo'ldi.

Bundan tashqari, xalifalikning markaziy shaharlarida, masalan, Bag'dod va Damashqda ilm-fan va savdo rivojlanishi, yangi innovatsiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy taraqqiyotga zamin yaratdi. Shu bilan birga, qishloq hududlaridagi dehqonchilik va tadbirkorlik kabi faoliyatlar ham xalifalikning ijtimoiy-iqtisodiy hayotining ajralmas qismi bo'lib qoldi. Biroq, bu davrda ham, ijtimoiy sinflar o'rtasida farqlar va iqtisodiy adolatsizliklar mavjud edi, bu esa o'z navbatida xalifalikning ichki barqarorligini ta'minlashda ba'zi muammolarni keltirib chiqardi. Arab xalifaligida ijtimoiy-iqtisodiy hayotning shakllanishi, uning diniy, falsafiy va siyosiy nuqtai nazardan tahlil qilinishi, o'sha davrning rivojlanish jarayonlarini va uning zamonaviy jamiyatlarga ta'sirini tushunish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada biz Arab xalifaligining iqtisodiyoti, ijtimoiy tuzilishi, savdo aloqalari, hunarmandchiligi, qishloq xo’jaligi va soliq tizimini o’rganamiz. Shuningdek, jamiyatdagi tabaqalanish, oilaviy hayot, ta’lim va dinning roli kabi muhim ijtimoiy masalalarni ham ko’rib chiqamiz. Maqolani yozishdan maqsad – xalifalikning iqtisodiy va ijtimoiy hayotining o’ziga xos jihatlarini ochib berish, uning o’sha davrdagi dunyo tsivilizatsiyasiga qo’shgan beqiyos hissasini baholashdir.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Arab xalifaligida ijtimoiy-iqtisodiy hayotni o‘rganish, uning rivojlanish jarayonlarini tahlil qilishda tarixiy manbalar va ilmiy tadqiqotlar muhim rol o‘ynaydi. Ushbu mavzu bo‘yicha bir nechta muhim adabiyotlar mavjud bo‘lib, ular xalifalik davrining ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalari, diniy qadriyatlar va amaliyotlari hamda jamiyatda yuzaga kelgan o‘zgarishlarni batafsil yoritadi.

1. **V.B. Mirkamilov, F. Aqchayev, O. Mamirovning "O‘rta asrlar tarixi"** (2016) o‘quv qo‘llanmasi o‘rta asrlar tarixini keng qamrovli tahlil qilgan asar bo‘lib, unda arab xalifaligining siyosiy va ijtimoiy hayoti, iqtisodiy taraqqiyoti haqida to‘liq ma’lumotlar berilgan. Bu qo‘llanma o‘rta asrlar tarixini o‘rganuvchi talabalar va ilmiy xodimlar uchun asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Xususan, arab xalifaligida ijtimoiy adolat, mulkni taqsimlash va iqtisodiy tizimning shakllanishi haqida alohida to‘xtalib o‘tilgan. Bu asar, xalifalik davrida yuzaga kelgan iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni yoritishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

2. **Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining "Jahon tarixi 1-qism: Qadimgi va o‘rta asrlar davri"** (2013) darsligi esa, o‘rta asrlar tarixining bir qismi sifatida, arab xalifaligi davrining iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmasini kengroq yoritadi. Bu darslikda arab xalifaligidagi ijtimoiy qatlamlar, iqtisodiy faoliyatlar, savdo va ishlab chiqarish tarmoqlari haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. Darslikda, shuningdek, Islomning tarqalishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta’siri alohida ko‘rsatilgan. Bu kitob, tarixiy jarayonlarning asosiy omillarini va ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunishga yordam beradi.

3. **V.F. Semyonovning "O‘rta asrlar tarixi"** (1973) darsligi sobiq Sovet davrida yozilgan va tarjima qilingan bo’lib, unda Sovet davri mafkurasi ham namoyon bo’ladi. Darslikda, o‘rta asrlar davrining iqtisodiy hayoti va jamiyatning turli qatlamlarining o‘zaro aloqalari haqida to‘liq tahlil qilinadi. Semyonov o‘z asarida, arab xalifaligida shakllangan iqtisodiy tuzilmalar, shu jumladan, savdo

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

yo‘llarining rivojlanishi va moddiy boyliklarning taqsimlanishi masalalariga alohida e’tibor qaratadi. Kitobda Islom diniga Ijtimoiy tomondan tarif va talqin berilgan bo’lib, ba’zi ma’lumotlar Islom aqidasiga nomutanosib tarzda yoritilgan, ba’zilari esa Islom diniga zid tarzda (misol uchun, kitobda uchinchi xalifa-Usmon (r.a) ni keksayib, bukchayib qolgan irodasiz chol deya, yoki, “Xorijiylar” mazhabini demokratik xarakterli deb aytilganligi).

Muhokama va natijalar. Arab xalifaligidagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot VIII-XII asrlarda gullab-yashnagan davrini boshidan kechirgan. Bu davrda xalifalik iqtisodiy, ilmiy va madaniy jihatdan dunyoning eng rivojlangan hududlaridan biriga aylangan.

Arab xalifaligi VIII asrdan XII asrgacha bo’lgan davrda nafaqat siyosiy qudrat, balki iqtisodiy yuksalish va madaniy rivojlanishning yorqin namunasi sifatida tarix sahifalarida o’chmas iz qoldirdi. Sharq va G’arb o’rtasidagi muhim ko’prik vazifasini o’tagan ushbu davlat, o’zining ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o’ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

“Muhammad dastlab cho‘pon bo’lib, keyin badavlat bir ayolga uylanish orqasida savdo bilan shug‘ullangan. Lekin uning sudxo‘rlikka ilgaridan yomon ko‘z bilan qarab kelishi Uning demokratik elementlar bilan yaqinlashuviga sabab bo’ldi. Muhammad payg’ambar sifatida 610-yillarda maydonga chiqdi. Sudxo’rlikni qoralashdan tashqari, u har bir kishidan kambag‘allarga yordam berishni, o‘z daromadining o‘ndan bir qismini kambag‘allarni boqish uchun ajratishni talab qildi.” [1]

Arablarning fath etgan o’lkalarida Islom qonun qoidalariga har doim ham bir tekisda amal qilinmagan, hatto hokim va zodagonlar orasida ham bunday qonun-qoidalardan uzoqlashish holatlari bo’lib turgan. “Biroq arablar tomonidan bosib olingan mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan eng taraqqiy topgan qismida yashagan arab zodagonlari oradan ko‘p vaqt o‘tmay mahalliy aristokratiya ta’siriga berilib ketdi. Bu ta’sir savdo yaxshi rivoj topgan boy mamlakat bo’lmish Suriyada, ayniqsa, kuchli bo‘ldi. Arablaming harbiy boshlig’lari bu yerda yashab

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

turib, Suriyadagi yuqori sinfning zeb-ziynatli hayotini tez o'zlashtirib oldi. Suriyadagi katta yer egalaridan va quldorlardan o'rnak olib, ularning o‘zi ham yerlarni batamom xususiy mulk qilib ola boshladi, qullar asray boshladi.” [2]

Chahoryorlardan so’ng xalifalik taxtiga Ummaviy sulolasi keladi. Bu sulola davrida bir qancha islohotlar o’tkaziladi, boshqaruv tizimida ayrim o’zgarishlar qilinadi. Aholi turmush tarzida o’zgarishlar bo’lishini ko’rish mumkin. “Ummaviylar zamonida idora qilish apparati ancha murakkablashadi. Aholidan yer va jon solig‘i oladigan juda keng tarmoqli moliya apparati tashkil qilindi. Shu narsa xarakterliki, endi faqat «kofirlar» emas, balki musulmonlar ham soliq to'laydigan bo‘ldi. Uch xil soliq asosiy soliq hisoblanar edi.”: “…1) xaraj-yer solig’i, 2) juzya-jon boshi solig’i (bu soliq avvaliga faqat g’ayri musulmonlardan olinar edi, keyinchalik borib musulmonlardan ham olinadigan bo’ldi) va 3) zakot-majburiy to’lanadigan ushur, bu soliq ham bevosita xalifaning o’ziga kelib tushar edi. Xaraj bilan juzya xalq uchun ayniqsa og’ir soliqlar edi.” [3]

Abbosiylar zamonida arab davlatining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti yana bir pog’onaga yuqoriga ko’tariladi. “Bu davrda dehqonchilik sohasida katta yutuqlarga erishildi. Sholi, paxta, shafron keng tarqalgan qishloq xo‘jalik ekinlari edi. Juda keng atirgul plantasiyalari, parfumeriya (atir, upa eliklar) uchun maxsus essensiya berar edi. Arablar qimmatbaho nasldor ot va qo‘ylar urchitardilar. Bu yerda jun, ipak, yaxshi navli po‘lat va qurol (mashhur Damashq po’lati), shisha va oynadan yasalgan buyumlar, zarargarlik va attorlik buyumlari ishlab chiqarilardi. Arab savdogarlari yiroq Shimolgacha, Yuqori Volgagacha va hatto Boltiq dengizi qirg‘oqlarigacha savdo qilardilar. Arablar savdosida qul savdosi katta o‘rin tutardi. Bu qullar, asosan, osiyolik, yevropaliklardan iborat edi. Arablar hukmronligining ilk davrida ancha yengil tortgan xalifalik mehnatkash aholisining ahvoli keyinchalik og‘irlasha boshladi. Dehqonlar qisman natura shaklida (mahsulot bilan) va qisman pul shaklida katta-katta soliqlar to’lardi. Amaldorlarning o‘zboshimchaligi va jabr-zulmi, dehqonlarning huquqsizligi va himoyasizligi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ularni haqiqatda yarim qul holiga solib qo‘ygan edi. Xalifalikda qullarning ahvoli juda og‘ir edi.” [4]

“Bag’dod xalifaligi davrida arablarda feodal munosabatlar uzil-kesil qaror topdi. Xalifalikka qarashli mamlakatlarda ekspluatatsiya qilinuvchi asosiy toifa jamoatchi dehqonlar edi. Biroq, arablardagi feodalizmning o’ziga xos xususiyatlari bor edi. Jamoatchi dehqonlarning ko’pchiligi xalifaning yerlarida yashab, feodal rentani bevosita davlatning o’ziga to’lar edi. Arab qonunlariga muvofiq butun yer xalifaga qarashli bo’lib, xalifa bu yerning biror qismini o’z xizmatkorlariga vaqtinchagina berar edi. Shu tufayli xalifalikda katta yer egaligining nasldan-naslga o’tishi o’rta asr Yevropasidagi kabi qat'iy emas edi. Birorta a'yon o’lgandan keyin, uning mol-mulki odatda xalifa xazinasiga o’tar edi. Bu mol-mulkni o’lganning vorisiga (yoki vorislariga) berish-bermaslik xalifaning xohish va iltifotigagina bog’liq edi. Ikkinchi tomondan odatda xalifada ham, uning zodagonlarida ham feodal Yevropasida bo’lgani singari, barshchinali, ya'ni ishlab beradigan rentali pomestelari yo’q edi. Bunda zodagon xo’jaligidagi ish kuchini odatda qullar tashkil etar edi. Qaram dehqonlar esa barshchinada ishlamas edilar, faqat mahsulot bilan yoki pul bilan renta to’lar edilar, xolos. Shunga qaramasdan, Bag’dod xalifaligi zamonida feodal mulkchiligi sezilarli darajada rivojlanib bordi. Iqto – harbiy xizmat o’taganligi uchun beriladigan chek yer bo’lib, G’arbiy Yevropa benefitsiyalariga o’xshab ketadi, mulk – in'om qilingan va asta-sekin nasldan-naslga meros bo’lib qoladigan yer-mulklar, qissa va boshqa imtiyozli yerlar g’aznaga soliq to’lashdan ozod qilingan bo’lib, bular o’sib kelayotgan feodal xususiy er egaligining formalari edi. Yerlarning ma'lum qismi – vaqf yerlar maschitlarga berilar edi. Xalifaning davlat feodal mulkchiligini qisqartirish hisobidan yirik va o’rta darajadagi xususiy er egaligining o’sishi arab feodalizmi rivojlanishining harakterli hodisalaridan biri bo’lib, bu hol xalifalikka qarashli juda katta hududni tashkil etgan turli xil mamlakat va o’lkalardagi yerli feodallarning ajralib chiqish va separatistik kayfiyatlarining tobora avj olishida ancha katta ahamiyat kasb etdi. Arab feodalizmining yana bir xususiyati – qulchilik

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

belgilarining ancha saqlanib qolganligi edi. Arablarda Bag'dod xalifaligi davrida ham qullar juda ko'p edi. Qullar eng og'ir ishlarda: irrigatsiya inshootlari qurishda, tog' va ruda konlarida, paxta dalalarida va shunga o'xshash ishlarda juda ko'plab ishlatilar edi. Afrikadan keltirilgap qora tanli qullar ayniqsa ko'p edi. Qora tanli qullarni arablar zanjilar deb atardilar, zanji degan so'z Zanzibar orolining nomidan olingandi. Oq tanli qullardan esa juda ko'plab uy xizmatkorlari, xaram kanizaklari, raqqos va raqqosa, ashulachi, akrobat va shunga o'xshashlar sifatida foydalanilar edi. Xalifalarning saroy gvardiyasi ham shu oq tanli qullardan tashkil etilardi." [5]

Arab xalifaligining ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini hozirgi O'rta Osiyo misolida ham ko'rishimiz mumkin: "Arab xalifaligi Turkistonni zabt etish jarayonida Buxoro, Poykand, Sug'd hukmdorlaridan katta miqdorda boj-u tovonlar undirib olindi. Marv, Poykand, Buxoro va Samarqand kabi shaharlarda shahriston yoki undagi xonadonlarning qoq yarmi arablar va ular bilan birga kelgan ajamlar (eronliklar)ga bo'shatib beriladi. "Xiroj", "ushr", "zakot", "jizya" kabi soliqlar joriy etiladi." [6]

Xulosa. Arab xalifaligining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti VIII-XII asrlarda gullab-yashnagan sivilizatsiya namunasi bo'lib, o'zining boy merosi bilan jahon tarixida muhim o'rin tutadi. Qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi, shuningdek, samarali soliq tizimi xalifalikning iqtisodiy qudratini ta'minladi. Jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, ta'lim tizimi va madaniyatining rivojlanishi xalifalikning yuksalishiga o'z hissasini qo'shdi.

Arab xalifaligida fan, adabiyot va san'atning rivojlanishi, shuningdek, turli madaniyatlarning o'zaro ta'siri va uyg'unligi uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan eng muhim hissalari hisoblanadi. Uning merosi nafaqat o'sha davrga, balki bugungi kungacha ham ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu maqola orqali biz Arab xalifaligining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti naqadar murakkab va serqirra ekanligini ko'rdik. Uning yutuqlari va kamchiliklari, shu davrning o'ziga xos jihatlari va dunyo tarixidagi o'rni bizga qiziqarli va ibratli saboqlar beradi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B. Mirkomilov, F. Aqchayev, O. Mamirov. O‘rta asrlar tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent «Mashhur-press» 2016. [1, 119-122-betlar], [2, 119-122-betlar], [4, 119-122-betlar]
2. V. F. Semyonov. O’rta asrlar tarixi. (Pedagogika institutlari uchun darslik). “O’qituvchi” nashriyot Toshkent-1973-yil. [3, 140-141-betlar]
3. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. Jahon tarixi 1-qism. Qadimgi va o’rta asrlar davri. Toshkent-2013. [5, 332-333-betlar]
4. Q. Rajabov, F. Amonova, B. Qandov. O’zbekiston tarixi. T.: 2024. [6, 57-b.]